



TESHIK DALACHOY (HYPERICUM PERFARATUM) O`SIMLIGI DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Safarboyeva Parvina Jasur qizi
Mamatkulova Iroda Ergashevna
O`zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
E.mail: parvinasafarboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda dalachoy tarkibida oshlovchi moddalardan flavanoidlar alkaloidlar va vitaminlar bo`lganligi sababli oshqozon-ichak kasalliklari, jigar, yurak kabi kasalliklarda foydalaniladi. Bundan tashqari o`simlikdan tayyorlangan yangi preparat-imanin kuyganda va boshqa teri kasalliklarda foydalaniladi. .

Kalit so`zlar: Xolin, rutin, giperozid, kversitrin, flavanoidlar, smola, giperitsin, antratsen, imanin.

Teshik Dalachoy –Hypericum Perfaratum dalachoydoshlar oilasiga kirib ko`p yillik, bo`yi 30-35sm ga yetadigan o`t o`simlik. Ildizpoyasi va ildizi sershox. Poyasi bir nechata, tik o`sovchi, silliq, tuksiz, qirrali bo`lib, poyada bandsiz qarama-qarshi joylashgan. Gullari tilla sariq rangda, bo`lakli, qalqonsimon ro`vakka to`plangan. Mevasi uch xonali, ko`p urug`li, pishganda ochiladigan ko`sakcha. Urug`i mayda, cho`zinchoq va chuqurchali bo`lib, qo`ng`ir rangga bo`yalgan. Ular asosan nam tropik iqlimli o`rta mintaqalarda tarqalgan. O`zbekistonda dalachoydoshlardan Dalachoy (Hyperikum) turkumining 3 turi o`sadi[1].

Geografik tarqalishi: Dalachoy turlari yo`l yoqalarida, ariq bo`ylarida, o`tloqlarda, bedazorlarda, o`rmonlarda, o`rmon chetlarida, butalar orasida o`sadi. Asosan Ukraina, Belarus, Moldava, Boltiq bo`yi davlatlari, Rossiyaning Yevropa qismlarida hamda O`rta Osiyoda uchraydi[1]

Kimyoviy tarkibi: Hyperikum Perfaratum o`simligining kimyoviy tarkibida 10-12% oshlovchi moddalar, 0,1-0,4% antratsenumlari (giperitsin, psevdogiperitsin va boshqalar) flavonoidlar (giperozid, rutin, kversitrin, izokversitrin, kversetin, miritsetin va boshqalar), 0,1-0,33% efir moylari, 55mg% karotin, 12% vitamin S, 34 mg xolin, juda oz miqdorda alkaloidlar va 10% gacha smola bor bo`lib[2].

Dorivorlik xususiyati *Hyperikum Perfaratum* turli xil kasalliklarda ishlatiladi. Masalan o`simlikning dorivor preparati burishtiruvchi, qon oqishini to`xtatuvchi, shamollashga qarshi, og`riqsizlantiruvchi, antiseptik vosita sifatida,



turli yaralarni bitkazuvchi, siydik va safro haydovchi, ovqat hazm qilishni yaxshilash, stress va tushkunlikdan xalos bo'lish, shuningdek, ishtaha ochuvchi, to'qimalarni tiklovchi, asab tizimini tinchlantiruvchi xususiyatga ega. Ibn Sino ham o'z davrida *Hyperikum Perfaratumdan* og'riq qoldiruvchi sifatida foydalangan[3,4,]. Polshada esa o'simlikning damlamasidan oshqozon –ichak kasalliklarida (ich qotishda, ich ketganda), jigar, yurak, sistit kasalliklarini davolashda qo'llanilgan. Shuningdek, bosh va boshqa asab kasalliklarida ham tinchlantiruvchi va og'riqsizlantiruvchi vositasi sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari yana ko'pgina kasalliklarda ham foydalanilgan. Xususan spirtli damlamasidan revmatik kasalliklarda tomdirib ichirilgan[5,6]. Yanchilgan yangi barglari yaralarga qo'yilganda, ularning tez bitishiga olib kelgan. Spirtli damlamasi suv bilan aralashtirilib, og'iz chayilganda noxush hidlar yo'qolgan. Toza damlamasi milklarni qotirish uchun surtishda foydalaniladi[2]. *Hyperikum Perfaratum* o'simligidan tayyorlangan yangi preparat –imanin kuyganda va boshqa teri kasalliklarida, yara kasaligi va yiringli yaralarda, kuchli shamollashni davolashda ishlatilib kelingan. Qon bosimini bir muncha oshiradi. Shu sababli, gipertonik kasalliklarga o'simlikni boshqa o'simliklar aralashmasi bilan foydalanish tavsiya etiladi[7,8].

Xulosa: Teshik Dalachoy (*Hyperikum Perfaratum*) o'simligining kimyoviy tarkibi boy bo'lganligi uchun, ko'pgina kasalliklarda foydalanib kelingan. Shu sababli bugungi kunda plantatsiya usuli yoradamida ko'plab navlari yaratilmoqda. Turli farmakologik korxonalariga yetkakizlib berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Axmedov, A Ergashev, A Abzalov, M Yulchiyeva, D Mustafakulov “Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya” 2020-yil Toshkent
2. L.X.Yoziyev, N.Z.Arabova “Dorivor o'simliklar” 2017-yil Toshkent
3. Sobirova M., Murodova S. Effects of biopreparates on cynara scolymus L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids // In E3S Web of Conferences//. 2021. Vol. 258.
4. Sobirova M., Muradova S., Khojanazarova M., Kiryigitov Kh. Extraction of “Elicitor” and determination of volatile organic substances contained in the elicitor// E3S Web of Conferences 389, 01044 (2023) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338901044> UESF-2023
5. Маматкулова И.Э., Абдураимов О.С., Нархаджаева А., Махмудов А.В. “Ўзбекистон флорасидаги маданий ўсимликлар ёввойи аждодларининг озуқабоп турлари” Вестник КГУ. - Карши, 2021.-№.3 (49). - С.45-53.



6. Маматкулова И.Э., Абдураимов О.С., Махмудов А.В., Эрдонов Ш. “Туркистон тоғ тизмасида тарқалган *Elwendia Boiss.* (*Apiaceae*) туркуми турлари” Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2021. №6. 10-14 Б.
7. Маматкулова И.Э. “Распространение видов рода *Elwendia Boiss* на Туркестанском хребте (Узбекистан)” IX-международная конференция “Экологические особенности биологического разнообразия”, Кулаб, Таджикистан. 2021, С. 22-23
8. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov “Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan ridge, Uzbekistan” biodiversitas ISSN: 1412-033x Volume 24, number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722 pages: 1621-1628